



# XORAZM VILOYATI BOG'OT TUMANI HOKIMINING QARORI

## Bog'ot shaharchasi, O'zbekiston ko'chasi, 18-uy

2022 - yil 17 - may

329-12-170-Q/22

Bog'ot tuman hokimligi

**Boğot tumani “Tozabozor” mahallasi hududida 1,1 km uzunlikda piёdalalar йўлакчаси қуриш ва 27 дона тунги ёритиш чироқлари ҳамда “Ўзбекистон” маҳалласи ҳудудида 1,1 км узунликда пиёдалар йўлакчаси қуриш ва 27 дона тунги ёритиш чироқларини ўрнатишга рухсат қилиш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 мартда “2022-2026 йилларда “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” дастурларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-172-сонли ҳамда Хоразм вилояти ҳокимининг 2022 - йил 29 мартдаги 136-12-0-Q/22 сонли қарорларига асосан, туман ободонлаштириш бошқармасининг 2022 йил апрель ойидаги ёзишмасини кўриб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонуннинг 6, 25-моддаларига асосланиб,

### ҚАРОР ҚИЛАМАН:

1. Боғот туман ободонлаштириш бошқармасининг 2022 йил апрель ойидаги ёзишмаси маълумот учун қабул қилинсин.
2. Боғот тумани “Tozabozor” маҳалласи ҳудудида 1,1 км узунликда пиёдалар йўлакчаси қуриш ва 27 дона тунги ёритиш чироқлари ҳамда “Ўзбекистон” маҳалласи ҳудудида 1,1 км узунликда пиёдалар йўлакчаси қуришга ва 27 дона тунги ёритиш чироқларини ўрнатишга рухсат қилинсин.
3. Буюртмачи: Боғот туман ободонлаштириш бошқармасига - қурилиш ишларини бошлаш учун вилоят қурилиш бош бошқармасига архитектура-режалаштириш топшириғига буюртма бериш;
  - қурилиш учун лойиҳа ҳужжатларини тайёрлатиш;
  - тайёрланган лойиҳа ҳужжатларини вилоят бош архитектори ҳузуридаги шаҳарсозлик кенгашига тақдим қилиш;
  - шаҳарсозлик кенгаши мажлисининг баённомасига асосан лойиҳа-смета ҳужжатларини Давлат экспертизасидан ўтказиш;
  - қурилиш монтаж ишларини бошлаш учун вилоят Давлат архитектура ва қурилиш назорати инспекциясидан рухсатнома олиш вазифаси юклатилсин;
4. Боғот туман қурилиш бўлими (С.Шарипбоев) ва Боғот туман ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи (О.Авезов)га қурилиш жараёнини назорат қилиб бориш вазифаси топширилсин.
5. Мазкур қарорни бажарилишини назорат қилиш туман ҳокимининг ўринбосари М.Каландаров зиммасига юклатилсин.

Туман хокими



Ш.Яхшибаев



№ \_\_\_\_\_ Sonli  
**PUDRAT SHARTNOMASI**

2022 yil «8» 11

513-12-170-  
OB/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari **O.Avezov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **TITAN ELEGANT SERVICE xususiy korxonasi** nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari **A.Vaisov** ikkinchi tomondan **Xorazm viloyati Bog'ot tumani "Tozabozor" mahallasida piyodalar yo'lakchasini qurish mukammal ta'mirlash (obod qishloq).** bo'yicha maskur pudrat shartnomasini to'zidilar

**I. TA'RIFLAR**

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi; -ijro xujjatlari- naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

-qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab quyiladi;

-vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

-shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniqlash belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

**II. SHARTNOMA MAVZUSI.**

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Xorazm viloyati Bog'ot tumani "Tozabozor" mahallasida piyodalar yo'lakchasini qurish mukammal ta'mirlash (obod qishloq).** ishlari bo'yicha ko'zda tutilgan loyixa buyicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.**

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (2022yil «01» noyabrdagi № 169928-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **162 421 330 (Bir yuz oltmish ikki million to'rt yuz yigirma bir ming ych yuz o'ttiz)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati o'zil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;

- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

**IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.**

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar to'zilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

- mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni quriklanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma to'zadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.



## V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

-mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;

-ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

-Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

-moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

-Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlarini ruyxatini taqdim etish;

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi

15. Ob'ektni Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgan keyin 30 kunda foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

## VII. TO'LOVLAR VA XISOB - KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 48 726 399 (Qirq sakkiz million etti yuz yigirma olti ming uch yuz to'qson to'qqiz)so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-fakturani» o'zi to'zib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlari tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan to'ziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'k qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqiligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam rayishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligi amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qilish qiymatini kupaytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda to'zata olmasa, Pudratchi ularni to'zatishtirish kechigishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni Qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tug'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan konikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yo'zaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.



32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni qonservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

#### XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qonstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlariga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddati ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

#### XII. SHARTNOMANI BEKORQILISH.

35. Buyurtmachi:- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

-Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

-ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib ko'yilganda;

-Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l quyilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan kollar bundan mustasno.

#### XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 may 2021 yildagi PF-321 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 321 sonli qarori bilan, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar buladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma buyicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch bank kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali buyicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tomonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, qorxonasi atamasi yoki maqomini notugri bersa va o'zgartirish to'grisidagi ma'lumotni uch qalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tula ydigan neustoyka, afvapenyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.



#### XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, uxolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

#### XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.
50. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.
51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.
52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkn qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi konun xujjalari ko'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolanib Budget kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 3 nusxada tuzildi.

#### XVI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

58. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korruptsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
59. Taraflar shartnomadagi korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
61. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.
62. Agar bir tarafga boshqa tarafning korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

#### XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

"TITAN ELEGANT SERVICE" XUSUSIY KORXONASI	«Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi»
Manzili: Urganch shaxar DOSOV KO'CHASI 114K-UY	Manzili: Bog'ot shaharchasi Tinchlik ko'cha 2 uy
Tel/faks : +998-97 361 44 00	Tel/faks 62 31 52 783
x/v :202080001006264960001	ShXR 100022860332047065200110008
Banknomi : Ipoteykabank Xorazm f-li	Budgetdan mablag oluvchi STIRi 206943827
MFO : 01129	MFO 00014
STIR : 304019841	OKONX: 92310
HHTUT 41201	G'aznachilik bul nomi: Moliya Vazirligi Yagona Gazna hisob varagi
	G'aznax/v 23402000300100001010
	Bankning nomi Markaziy Bank Toshkent sh bosh boshqarmasiB
	STIR 201122910
Raxbar A.Vaisov	Raxbar O.Avezov
(imzo)	(imzo)





**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

ER2445570173

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bog‘ot tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 07.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik  
markazi  
markaz rahbari:**



**X.K.SAIDOV**

08.11.2022





Xorazm viloyati, Bog'ot tumani Tozabozor maxallasi piyodalar yo'lakchalarini kurish mukammal ta'mirlash (Obod kishlok)ishlari bo'yicha tanlovda yutib olingan narxni 2022 yil oylarida molyalashtirish

JADVALI

Tr	Nomi	Jami molyalashtirilgan mablag'	2022 yil oylar qurilish qiymati														
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak					
			Yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr (5 foiz)			
1	Avans (30 % miqdorida)	48 726 399														48726399	
2	Qurilish montaj ishlari	113 694 931														105573865	8121066
	<b>JAMI</b>	<b>162 421 330</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>154300264</b>	<b>8121066</b>	

Buyurtmachi

Bog'ot tumani boqarimast boshliq



O. Avezov

Pudratchi

TITAN ELEGANT SERVICE xususiy korxonasi

M.Y



A. Vaisov



**Қурилиш-монтаж таваккалчиларни ихтиёрӣ сугурталаш  
ПОЛИСИ**

«KAFOLAT sug'urta kompaniyasi» AJ, 2022 йил 08 ноябрдаги №13-11/2022/26/13-сонли Қурилиш таваккалчиликларини сугурталаш Шартномасининг шартларига мувофиқ, TITAN ELEGANT SERVICE Х/К мулкӣ манфаатларини сугурта химоясини тақдим этади.

**Умумӣ сугурта суммаси:**148669410 (бир юз қирқ сакқиз миллион олти юз олтиши тукқиз минг турт юз ун ) сўм.

Шу жумладан:

а) мол-мулкни сугурталаш бўйича: ( ) сўм

б) учинчи шахслар олдида фуқаролик жавобгарлигини сугурталаш бўйича: \_\_\_\_ (\_\_\_\_), ҳаёти ва соғлиғига зарар етказилиши учун битта шахс учун \_\_\_\_.

**Сугурта муқофоти:**474225(турт юз етмиш турт минг икки юз йигирма беш)сум сугурталаш шартномасининг шартларига мувофиқ.

**Шартсиз франшизанинг миқдори:** ҳар бир сугурта ҳодисаси бўйича сугурта суммасидан \_\_\_\_% ни ташкил этади.

Сугурталовчининг мажбуриятлари 2022 йил 08 ноябрдан бошлаб қучга қиради ва 2023 йил 07 ноябр соат 24-00 гача амал қилади.

**Сугурталовчининг номидан:**



Берилган санаси:2022й. 08 ноябр





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi,46 uy. Tel: +998904387766, E-mail:  
irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Bekchanova Nellya Axatovna

Sana:13-10-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 65185**

**Obyekt nomi** «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Tozabozor mahallasida 1,1km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish» ishchi loyihasi»

**Buyurtmachi** - Bog'ot tumani obodonlashtirish boshqarmasi.

**Bosh loyihachi** - «Karall konstruktor servis» XK

**Litsenziya** 25.05.2021 yildagi AL-001811-sonli litsenziya

**Moliyalashtirish manbai** - budjet

**Bosh pudratchi** - tanlov savdolari natijasida

**Qurilish turi** yangi

**Murojaat raqami:** № 61883

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Loyiha topshirig'i;

1.2. Bog'ot tuman hokimining 17.05.2022 yildagi 329-12-170-Q/22-sonli qarori;

1.3. Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasining 23.08.2022 yildagi 1733-1733204-48928-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i;

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1. Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari.

Tashqi havo harorati - -19 C.

Normativ shamol bosimi - 38kg/m2.

Normativ qor qatlami vazni - 50kg/m2

Yer relyefi tekis.

Tuproqlar cho'kmaydi.



Zilzilabardoshligi - 7-8ball.

Yong'inga qarshiligi - 2 toifa.

Yerning normativ muzlash chuqurligi - 0,68m.

### 3.2. Bosh reja.

Loyihalashtirilayotgan ob'ekt Xorazm viloyati Bog'ot tumani Toza'bozor mahallasida joylashgan.

Ushbu xududda quyidagilar loyihalashtiriladi: piyodalar yo'lakchasi qurish.

### 3.3. Asosiy loyihaviy yechimlar.

Piyodalar yo'lakchasi asosi 12sm. qalinlikda tosh-qum aralashmasi yotqiziladi, polietilen plenka, yo'l asosini yuqori qatlami  $h=12\text{sm}$ . qalinlikda 250 markali beton qoplama yotqiziladi. Yo'l qoplamasining eni 1,5m. ni tashkil qiladi.

### 3.4. Yong'in xavfsizligi.

Ushbu ishchi loyiha bo'yicha qo'shimcha yong'in xavfsizligi talab qilinmaydi.

### 3.5. Atrof-muhit muxofazasi.

Ob'yekt xududi obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan.

Yer bilan tegib turgan inshootlar, tuproq va yer osti suvlarining agressivligini xisobga olagan xolda izolyatsiyaga ega.

Ob'ektning joriy narxlardagi narxi Uz.R. qurilish sanoati (Toshkent-2021 yilning 4-choragi) foydalanadigan moddiy-texnik resurslarning joriy narxlari Katalogi, birja bahosi va bozor sharoitlari, baholar kelishish bayonnomasi yordamida resurs usuli bilan aniqlanadi.

Buyurtmachining 28.09.2022 yildagi 178-sonli xatiga ko'ra ob'ektning taxminiy narxini aniqlashda quyidagi narx parametrlari qabul qilingan:

- o'rtacha soatlik ish haqi miqdori - 17921,03so'm kishi/soat (shu jumladan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha chegirmalar - 12%);
- pudratchining boshqa xarajatlari - 15,51%;
- buyurtmachi boshqa xarajatlari - 8950,000ming.so'm;
- ob'ektni sug'urta qilish xarajatlari - 0,32%;
- tavakkalchilik koeffitsienti - 1,0.

### **4. Loyihalnayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Ushbu ishchi loyiha bo'yicha qo'shimcha muhandislik ta'minoti talab qilinmaydi.



## 5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- buyurtmachi bilan;
- Bog'ot tuman hokimiyati;
- Bog'ot tumani qurilish bo'limi;
- SEO va JSH Bog'ot tuman bo'limi;
- Bog'ot tuman favqulotda vaziyatlar bo'limi;
- Bog'ot tumani yo'llardan foydalanish bo'limi;
- Bog'ot tumani gaz ta'minoti bo'limi;
- Bog'ot TETK;
- Xorazm suv ta'minoti MCHJ Bog'ot tumani bo'limi;
- Bog'ot tumani ekologiya va atrof muhitni muofaza qilish inspeksiyasi;
- Bog'ot tumani Tozabozor MFY;

## 6. Ekspertiza natijalari.

6.1 Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar ekspertizadan o'tkazilmaydi.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Ekspert tekshiruv natijalariga ko'ra ob'ektning umumiy qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 187794,667ming.so'm miqdorida e'lon qilingan ishlar qiymati 7874,845ming.so'mga kamaytirilib, 179919,822ming.so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

- |                                    |                      |
|------------------------------------|----------------------|
| - qurilish materiallari            | - 5506,251ming.so'm. |
| - ish xaqi                         | - 68,404ming.so'm.   |
| - mashina va mexanizmlar           | - 334,659ming.so'm.  |
| - pudratchining boshqa xarajatlari | - 916,535ming.so'm.  |
| - ob'ekt sug'urtasi                | - 21,843ming.so'm.   |
| - QQS                              | - 1027,154ming.so'm. |

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.



6.5. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 20 sentabrdagi 4464-sonli qaroriga muvofiq buyurtmachi boshqa harajatlari tarkibiga qurilish qiymatidan 0,05% to'lovi "Shaffof qurilish" MAT hisobiga o'tkazilishi va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchiligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-bob 7 p. 9,10,11,12 va 9-bob 4 ustunlarga muvofiq ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflarni bartaraf etilishi va sifati nazorat qilish (boshlang'ich hujjatlarni to'g'riligini ta'minlashda) mas'uliyati Buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlar, smeta me'yorlariga muvofiqligi mas'uliyati Loyiha muallifiga yuklatilgan.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Tozabozor mahallasida 1,1km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish» ishchi loyihasi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda, buyurtmachi qabul qilgan ish hajmi va qiymatni belgilovchi parametrlarning chegaraviy harajatlarga quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini tasdiqlagan taqdirda ko'rib chiqqan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdori	
		Taqdim etilgan	Tavsiya etilgan
Qurilishning QQSsiz joriy narxi	ming.so'm	155 517,101	148 669,410
Qurilishning QQS bilan joriy narxi (15%)	ming.so'm	178 844,667	170 969,822
Buyurtmachi boshqa xarajatlari (fakt.)	ming.so'm	8 950,000	8 950,000
Qurilishning QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan joriy narxi	ming.so'm	187 794,667	179 919,822

7.2. Ko'rsatilgan narx shartnoma tuzish uchun asos emas.

7.3. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.4. Buyurtmachi ekspertizaning izoxlari bo'yicha tuzatilgan loyiha-smeta xujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o'tkazilishini ta'minlaydi.

**Bosh mutaxassis:** MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH





Богот тумани “Тоғбозор” маҳалласида иёдалар йўлакчасини қурши (мукаммал таъмирлаш обод қишлоқ) ишлари

ДАСТЛАБКИ МАЪНИЛИ РЎЙХАТ

Т/Р №	Ишотлар номи ва маъни	Таъмирланадиган объектлар сони	Таъмирлаш ишларининг бошланиши ва тугаланиши вақти	Пудрат шартномаси тузилган вақти таъмирлашнинг умумий киймати (минг сўм)	Таъмирлашнинг 2022 й 1 январь ҳолатига қондиқ қиймати (минг сўм)	2022 йил капитал қўйилмалар ҳажми (минг сўм)					Шу жумладан			Илга туширилган асосий воситалар (минг сўм)	2023 йил 1 январь ҳолатига қўйилган объектлар бўйича қондиқ қиймати	Танлов савдолар ўтказилган вақти, танлов натижаларини тасдиқлаган баён тарғиб рақами	Пудратчи таъкилот номи			
						Жами капитал қўйилмалар	КМИ (СМР)	Жихозлар	Буюртмачининг харажатлари			Лойиҳа экспертизадан ўтказилган вақти ва тарғиб рақами	Танлов савдолар ўтказилган вақти, танлов натижаларини тасдиқлаган баён тарғиб рақами							
									жами	лоиҳа	экспертиза							АПЗ	ГАСН	
1	3	4	5	6	7	8=9+10+11	9	10	11=12+13+14+15	12	13	14	15	16=5	17	18	19	20		
	Богот тумани																			
1	Богот тумани “Тоғбозор” маҳалласида иёдалар йўлакчасини қурши (мукаммал таъмирлаш обод қишлоқ) ишлари	1	2022	0,0		10210,0			10210,0	8260,0	690,0	1260,0								
	Буюртмачи харажатлари					10210,0	0,0	0,0	10210,0	8260,0	690,0	1260,0	0,0	0,0	0,0					
	Тақсимланмаган лимит					168790,0														
	Жами:	1		0,0	0,0	179000,0														

Богот тумани ҳокими ўринбосари  
" " " 2022 йил  
М.Қаландаров







**Богот тумани "Тоғабозор" маҳалласида янгиликлар йўлакчасини қуриш (муқаммал таъмирлаш обод қишлоқ) ишлари  
ЯКУНИЙ МАНЗИЛИЙ РУЙХАТИ**

ТР №	Ишотлар номи ва маъноси	Таъмирланадиган объектлар сони	Таъмирлаш ишларининг бошланиши ва тугалла-ниши вақти	Шартнома шартномаси тузилган вақтига таъмирлашнинг умумий қиймати (минг сўм)	Таъмирлашнинг 1 январь ҳолатига қиймати (минг сўм)	2022 йил капитал қўйималар ҳақини (минг сўм)										Ишга туширилган асосий воситалар (минг сўм)	1 январь ҳолатига ўтувчи объектлар бўйича қолдиқ қиймати	Лойиҳа экспертизадан ўтказилган вақти ва тартиб рақами	Танлов шартномалари ўтказилган вақти, танлов натижаларини тасдиқлаган вақти ва тартиб рақами	Пурағоч ташкилот номи
						Жами капитал қўйималар	КМИ (СМР)	Жанжалар	Жами	Бўғиртамачининг харажатлари					ГАС					
										лобиҳа	экспер-тиза	АПЗ	Н	15						
1	3 Богот тумани	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16-5	17	18	19	20		
1	Богот тумани "Тоғабозор" маҳалласида янгиликлар йўлакчасини қуриш (муқаммал таъмирлаш обод қишлоқ) ишлари	1	2022	162421,3		172631,3	162421,3		10210,0	8260,0	690,0	1260,0		0,0		№651185 13.10.2022й	№169928 01.11.2022 й	"ТТТАН ELEGANT SERVICE" XK		
	Бўғиртамачи харажатлари					172631,3	162421,3	0,0	10210,0	8260,0	690,0	1260,0	0,0	0,0	0,0					
	Тақсимланмаган дивид					6368,7														

Богот тумани ҳокими ўринбосари  
" " " 2022 йил  
М.Қаландаров



"КЕ...ИШИЛДИ"  
Богот тумани Молия бўлими mudiri  
" " " 2022 йил  
Ж.Шопазаров



Богот тумани Ободонлаштириш бўлими mudiri  
" " " 2022 йил  
О.Авезов



"УТВЕРЖДАЮ"  
 заместителя хокима Багатского района  
 М. Каландаров  
 " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022 г

### ТИТУЛЬНЫЙ СПИСОК СТРОЙКИ

#### Раздел 1. Основные данные по стройке

1	Наименование и местонахождение стройки	Боғот туман "Тозабозор" махалласида пиёдалар йўлакчасини қуриш( мукаммал таъмирлаш обод қишлоқ) ишлари	
2	Отрасли		
3	Инвестор		
4	Заказчик	Боғот туман Ободонлаштириш бошқармаси	
5	Разработчики		
	ПСД		
	Экспертизы	"Каралл конструктор сервис" ЧП	
6	Генеральный подрядчик		
7	Источник финансирования	"TITAN ELEGANT SERVICE" ХК	
8	Срок начало и окончание строительства	Местный бюджет 2022 г Ноябрь-декабр	
9	Основные показатели стройки	Всего	Остаток на 01.01.2022г (в тыс.сум)
	Мощность	Обект	Обект
	Основные фонды	172631,3	172631,3
	Капитальные вложение	172631,3	172631,3
	Строительно-монтажные работы	162421,3	162421,3
	Оборудование и инвентарь		
	Прочие работы и услуги	10210,0	10210,0
	Содержание службы заказчика		
	<b>Прогноз на 2020 год в соответствии с согласованием с МФ адресным спискам</b>	<b>Всего</b>	<b>в договорных ценах (в тыс.сум)</b>
	Мощность	Обект	Обект
	Основные фонды	172631,3	172631,3
	Капитальные вложение	172631,3	172631,3
	Строительно-монтажные работы	162421,3	162421,3
	Оборудование и инвентарь		
	Прочие работы и услуги	10210,0	10210,0
	Содержание службы заказчика		

#### Раздел II. Поквартальная разбивка прогноза на 2022 г (в тек.ценах, тыс.сум)

№	Наименование	Всего на год	в том числе по кварталом			
			I	II	III	IV
	Ввод мощности	Обект	Обект	Обект	Обект	Обект
	Основные фонды	172631,3				172631,3
	Капитальные вложение	172631,3				172631,3
	Строительно-монтажные работы	162421,3				162421,3
	Оборудование и инвентарь					
	Прочие работы и услуги	10210,0				10210,0
	Содержание службы заказчика					



  


